



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 5-sinflar uchun
ona tili fanidan I chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 5-sinf ona tili fanidan
I chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat. Alifbo	1		
2.	“Yagonadir Vatanning sening” matni ustida ishlash	1		
3.	Matn ustida ishlash. Ma‘nodosh so‘zlar	1		
4.	Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Darak gap	1		
5.	“Changqovuz” matni ustida ishlash. Ma‘nodosh so‘zlar	1		
6.	So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolari	1		
7.	“Dunyoni gullarga burkagan bola” matni ustida ishlash	1		
8.	Matn ustida ishlash. So‘zning bosh va ko‘chma ma‘nosi	1		
9.	Fe‘l so‘z turkumi	1		
10.	Harakat va holat fe‘llari. Matn nima?	1		
11.	“Vatan degan so‘z” she‘ri (audiomatn). Tinglab tushunish topshiriqlari. Harakat va holat fe‘llari	1		
12.	Tasviriy matn ustida ishlash	1		
13.	Tasviriy matn yaratish (yozma)	1		
14.	“Jonajon Vatanim” loyihasi taqdimoti	1		
15.	Bob yuzasidan takrorlash	1		
16.	BSB-1. Tasviriy matn yaratish (25 ball)	1		
17.	Xato va kamchiliklar ustida ishlash	1		
18.	Ilmiy va kasbiy atamalar	1		
19.	“Soatning paydo bo‘lish tarixi” matni ustida ishlash	1		
20.	Matn ustida ishlash	1		
21.	A va O unlilarining talaffuzi va imlosi. Ma‘nodosh so‘zlar	1		
22.	Matnga sarlavha tanlash va uni kichik qismlarga ajratish. Ma‘nodosh so‘zlar	1		
23.	“Ertaklar haqida” matni bilan tanishish	1		
24.	E va U unlilarining talaffuzi va imlosi. I va O‘ unlilarining talaffuzi va imlosi	1		
25.	BSB-2. Topshiriqli diktant (25 ball)	1		
26.	Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar	1		
27.	“Nima uchun qishda deraza oynalarida naqshlar paydo bo‘ladi?” matni ustida ishlash	1		
28.	Matnga sarlavha tanlash	1		
29.	Sarlavhalar imlosi	1		
30.	Lug‘at tayyorlash bilan bog‘liq loyihalar taqdimoti	1		
31.	Buyruq gap	1		
32.	“Aqlli uylar” videolavhasi. Tinglab tushunish topshiriqlarini bajarish	1		
33.	“Aqlli uylar” videolavhasi. Tinglab tushunish topshiriqlarini bajarish	1		
34.	Ijodiy ish (Aqlli uy haqidagi yozma ish)lar tahlili. Bob yuzasidan takrorlash	1		
35.	CHSB-1 (40 ball)	1		
36.	Xato va kamchiliklar ustida ishlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat. Alifbo

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha bilim berish, grammatik qoidalarni o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ravon yozishga o‘rgatish va og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, jamoada ishlash madaniyatini tarbiyalash, intizom va mas’uliyat hissini oshirish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni o‘stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va tez va to‘g‘ri fikr bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– darslik materiallari va undan tashqari manbalar (televizor, radio)dan ma’lumotlarni topa olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimni, ko‘nikmalarini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. “Vatan” so‘zini eshitganingizda xayolingizga keladigan 5 ta so‘zni ayting.
2. Xaritani diqqat bilan kuzating va savollarga javob bering.



1. Xarita asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning joylashuv o'rnini haqida gapiring.
2. Siz yashayotgan joy O'zbekistonning qayerida joylashgan? Qaysi viloyatlar bilan qo'shni?
3. Yashayotgan hududingizning o'ziga xos jihatlari: iqlimi, tabiati, hayvonot va o'simlik olami, odamlarining fe'l-atvori haqida nimalarni bilasiz?

Xaritadagi joy nomlarini alifbo tartibida yozing.

Harflarning ma'lum bir tartibda joylashuvi **alifbo** deyiladi.

Alifbo so'zi arab yozuvidagi harflar tartibining birinchi va ikkinchi harflari - alif va bo (be) nomlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan. Alifboni "Alifbe" dan farqlash kerak. "Alifbe" - siz birinchi sinfda o'qigan savod kitobi. Hozirgi o'zbek alifbosi lotin yozuviga asoslangan.

Berilgan so'zlarning qarama-qarshi ma'nosini toping.

Diqqat! Bu so'zlar yarim doirada ko'rsatilgan harfdan boshlanadi.

A shirin <i>achchiq</i>	B qo'rqoq	D nodon	E yangi	F zararli	G xunuk	H quruq
I yo'g'on	J savol	K manman	L uddaburon	M ishyoqmas	N pakana	O semiz
P baland	Q yupqa	R yolg'on	S tez	T sun'iy	U qisqa	V bunyodkor
X saxiy	Y qattiq	Z kuchli	O' yonmoq	G' mag'lub	Sh yuvosh	Ch sayoz

Jadvalda yurtimizdagi joy nomlari keltirilgan. Bo'sh o'rinlarni to'ldirib, ularni ko'chiring. Har bir so'zning to'g'ri yozilishi va talaffuzini mashq qiling.

Andijon	B...	Do'ngqishloq	Egizqum	F...
G...	Hazorasp	Izboskan	J...	Kosonsoy
Langartepa	Muzrabot	N...	Olmalik	Parkent
Q...	Rishton	Samarqand	T...	U...
Vobkent	X...	Yangiyo'l	Zarafshon	O'rtasaroy
G'ijduvon	Shahrisabz	Ch...	Mingbuloq	Ellikqal'a

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'quvchilarga mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, darslikdagi mashqlarni og'zaki va yozma bajarish, guruhlarda ishlash orqali misollar tuzish.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

Yurtimizdagi joy nomlaridan 4 tasining ma'nosini izohli lug'at yoki yoshi katta kishilar yordamida aniqlab, yozib keling.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Yagonadir Vatanning sening” matni ustida ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha bilim berish, grammatik qoidalarni o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ravon yozishga o‘rgatish va og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, jamoada ishlash madaniyatini tarbiyalash, intizom va mas‘uliyat hissini oshirish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni o‘stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va tez va to‘g‘ri fikr bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– adabiy til va nutq me‘yorlariga amal qilish, badiiy asarlarni tushunish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish, turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

– shaxsiy rejalarni tuza olish, turli jadvalli ma‘lumotlarni o‘qiy olish, hisobkitob bilan ish yuritish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Yagonadir Vatanning sening!

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir. Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat shu tuproqqa

- ona qishloq dalalariga, ko'klam chog'ida lolazorga aylanadigan qir-adirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog'larga, hatto yantog'-u saksovuldan boshqa giyoh unmaydigan dasht-u sahrolarga muhabbatdan boshlanadi.

Qadimda dushmanlar Turk davlatining xoqoni O'g'uzxondan unga qarashli tashlandiq, hech narsa bitmaydigan bir parcha yerni talab qilishadi. Shunda bobomiz: "Vatan yolg'iz bizning mulkimiz emas. Bu muborak tuproqda qabristonda yotgan otalarimiz va qiyomatga qadar tug'ilajak avlodlarimizning haqqi bor. Vatandan ozgina bo'lsa ham, bir qarich bo'lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yo'qdir", - deb javob beradilar. Biz Vatanni sevmog'ni dono bobolarimizdan o'rganmog'imiz kerak.

Yodingizda bo'lsin, Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do'st-birodarga mehr bilan qo'shib ketadi. Nafaqat inson, hatto qushlar ham o'z yurtini sog'inadi. Dovdaraxtlar o'z yurtini qo'msaydi.



Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko'radigan daraxt bo'lar ekan. Fransuzlar uni havas bilan o'z yurtlariga olib kelib ekishibdi. Nihollar o'sib, ko'kka bo'y cho'zibdi... Yillar o'tib, bog' o'rmonga aylanibdi. Ammo oradan o'ttiz-qirq yil o'tgach, kutilmagan voqea yuz beribdi: suv ichib yashnab turgan daraxtlar o'z-o'zidan qurib qolibdi. Olimlar falokat sababiarini izlay boshlashibdi. Uni aniqlashgach, hayratdan yoqa ushlabdi. Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit'asida qattiq qurg'oqchilik bo'lgan ekan. U yerdagi shu navli daraxtlar qurib qolgan ekan. Shunda olimlar bir-biridan ancha olisda bo'lgan daraxtlarni

birlashtiruvchi qandaydir kuch, qandaydir sir bor ekan, degan xulosaga kelishibdi.

Ko'rdingizmi, aql anglashga ojiz bu sirli aloqa Vatan tuyg'usi bilangina izohlanishi mumkin. Vatan ona kabi yagonadir. Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram, yagonaligi bilan bebaho va beqiyosdir!

Xurshid Davron

Quyidagi so'zlarning izohini aniqlab, daftaringizga yozing.

1	mo'tabar	A	dala, cho'l, sahro
2	yantoq	B	e'tibor topgan, muqaddas
3	dasht	D	hurmatli, aziz, izzat-ikrom qilinuvchi
4	xoqon	E	musibat, ko'ngilsiz voqea
5	falokat	F	hukmdor, podshoh
6	mukarram	G	cho'lda o'sadigan, tikanli, ko'p yillik begona o't

1. Kimlar yoki nimalar inson uchun aziz hisoblanadi? Nima uchun?
 2. Vatanga muhabbat nimadan boshlanadi?
 3. “*Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do‘st-birodarga bo‘lgan mehr bilan qo‘shilib ketadi*” deganda muallif nimani nazarda tutgan?
 4. Turk xoqoni O‘g‘uzxon haqidagi rivoyatning ushbu matnga kiritilishi sababini ayting. Siz ham shunday rivoyatlar eshitganmisiz? Javobingizni izohlang.
 5. O‘sib turgan daraxtlarning qurib qolishi sababi haqida o‘ylab ko‘ring. Siz ham shunga o‘xshash hodisalarni kuzatganmisiz? Aytib bering.
- Matn sarlavhasini qayta o‘qing. Sarlavhani izohlay oladigan xatboshini toping. Ushbu matn uchun yana qanday sarlavha qo‘yish mumkinligini ayting.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Vatan faqat insonda bo‘ladimi? Javobingizni izohlang.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:

Nima uchun Vatanni onaga qiyoslaymiz, ya’ni “ona Vatan” deb ataymiz? Shu savolga javob yozing. Quyidagi boshlanmalardan foydalanishingiz mumkin:

- Vatanni onaga qiyoslashimizga sabab shuki, ...
- Vatan onaga o‘xshaydi. Chunki ...
- Haqiqatan ham, Vatan ...



O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

90 listdan iborat ona tili fanidan 5-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislari**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12. Psixolog hujjatlari**
- 13. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**